

## TALABALARNI ARHITEKTURA YODGORLIKLARI VOSITASIDA MA'NAVIY TARBIYALASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

*Primbetov K.*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI. Milliy g' oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b*

**Tayanch so'zlar:** yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib ma'naviyatli shaxs bo'lib voyaga yetishi, har tomonlama yetuk barkamol inson bo'lishi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatni bunyod etish.

**Ключевые слова:** воспитывать молодежь, вырастить совершенным человеком и духовной личностью, стать зрелой и совершенной личностью во всех отношениях, построить сильную духовность, основанную на богатом наследии и национальных ценностях наших предков.

**Key words:** to educate young people, to grow up as a perfect human being and a spiritual person, to become a mature and perfect person in all respects, to build a strong spirituality based on the rich heritage and national values of our ancestors.

### **РЕЗЮМЕ:**

Maqolada talabalarni arxitektura yodgorliklari vositasida ma'naviy tarbiyalash tizimini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В статье рассматриваются вопросы развития системы духовного воспитания студентов средствами памятников архитектуры.

### **SUMMARY:**

The article examines the development of a system of spiritual education of students by means of architectural monuments.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. Bu jihatdan globallashtirish jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa



ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumanda «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifatli shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir», degan xulosasi esa BMTga a'zo barcha davlatlar vakillarining diqqatini o'ziga qaratgani bejiz emas». [1]

Darhaqiqat, istiqloq tufayli xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o'zligini anglashga intilish kuchaydi.

Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilishi, uning yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatining ochib berilishi o'ta muhimdir. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Talabalik yillari – yoshlar hayotining eng muhim, rivojlanish davridir. Bu davrda yoshlar jismoniy va aktiv jihatdan kamolotga yetadilar, hayot ma'nosini chuqurroq, anglaydilar, jamiyatda o'z o'rmini topish yo'lida izlanadilar. Xuddi ana shu davrda yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi. Binobarin, talabalik davri – orzu va ishonchlar, kelajakka intilishlar, bo'lajak rejalarining shakllanish davridir. Ana shu davrda yoshlar ijtimoiy mehnatni to'g'ri baholay oladigan, mamlakat oldidagi vazifalarni, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligini, jamiyat boyliklarining qiymatini, Davlatimiz belgilab berayotgan vazifalarni to'g'ri anglashga intiladigan barkamol shaxsga aylanadilar. Shu boisdan ham ijtimoiy taraqqiyot talaba yoshlarning ijtimoiy faoliyatining hamma sohalarida faol bo'lishini, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlikni talab etadi.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar bu xususiyatlarni ijtimoiy hayotda to'la namoyon etish imkoniyatiga egadirlar.

Talaba yoshlar deganimizda, ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan 17-27 yoshlardagi yigit va qizlar tushuniladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlarning umumiy safi yildan-yilga tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Har tomonlama yetuk kishini kamol toptirish o'z-o'zidan amalga oshmaydi, albatta. Buning uchun ko'p yillar davomida tinimsiz g'oyaviy-siyosiy tarbiya jarayonini amalga oshirish – yoshlarda, jumladan, talabalarda yuksak e'tiqodni, demokratik ideallarga cheksiz ishonchni, g'oyaviy matonatni, siyosiy hushyorlikni, buzg'unchi g'oya va mafkuralarning zararli ta'siriga qarshi kurashish ko'nikmasini shakllantirish kerak. [2]

Bugungi talaba yoshlar ertangi kunda mamlakatimiz oldida turgan ulug'vor vazifalarni amalga oshirishga tayyorlanayotgan kishilardir. Bugungi talabalar istiqloq mash'alini yoqqan kishilar avlodi, ular yaratayotgan yangi jamiyatni kelajak tomon olib boruvchi yoshlardir. Ular bu boradagi mas'uliyatni doimo esda tutmoqlari kerak.

Bugungi jamiyat talablari, ilmiy-texnika va texnologiya sur'atlari o'sib borishi, talaba yoshlar bajarayotgan ijtimoiy funksiyalarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu ijtimoiy funksiyalar quyidagilardan iboratdir: jahon xalqlari hayotini, mamlakatimiz rivoji, taraqqiyotning o'zbek modelining mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganish; fan-texnika va texnologiyalar asoslarini chuqur egallash; kasbga aloqador bo'lgan professional va ijtimoiy ko'nikmalarni mehnat bilan, siyosiy va axloqiy madaniyatni tinmay o'stira borish yo'li bilan hosil qilish; ijtimoiy-siyosiy faoliyatda o'z mehnati bilan aktiv qatnashish; kelajakdagi mustaqil, ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarni egallash, yangicha dunyoqarashni shakllantirish va hokazolar.

Bu xususiyatlar talaba yoshlarning aktiv ijodiy mehnatida o'z ifodasini topadi. Talaba-yoshlar bu davrda o'z mehnat faoliyati turini, o'zining ma'naviy idealini belgilashi, muayyan turmush tarzini hosil qilishi lozim. Binobarin, talaba mehnati o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan aqliy mehnat ekan, demak bu mehnat a'lo o'qishda, ilmiy faoliyatda va fan asoslarini ijodiy o'zlashtirishda o'z ifodasini topadi. [3]

Bu esa talaba-yoshlarning professional faoliyatidir. Ma'naviy sohadagi faollikning mohiyati va mazmunini aniqlar ekanmiz, avvalo: birinchidan, uning o'zi nima, u insonning ma'naviy qiyofasidagi o'ziga xos xususiyatmi yoki ma'lum bir tarzda namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyatmi? - degan masalaga e'tibor berish lozim.

Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari hukumatimizning bu borada olib borayotgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarida o'z aksini topgan: [4]

- talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish yuzasidan ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarni keng yoritish;

- talabalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni kamolga yetkazish sifatini yaxshilash; ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy-ma'rifiy muhitni shakllantirish, o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish uchun munosib sharoitlar yaratish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar natijasi tahlillari shundan dalolat beradiki, bunda talabalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning quyidagi tarkibiy komponentlari muhim o'rin tutadi:

- talabalar ijtimoiy-siyosiy faolligini texnogen sivilizatsiya talablariga mos shakllantirish;



- umuminsoniy va milliy demokratik qadriyatlarga sodiqlik asosida zamonaviy keng dunyoqarash va bag'rikenglikni rivojlantirish;

- madaniy meros vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya va o'zligini anglashni takomillashtirish.

Talabalar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning mazkur tarkibiy qirralari mexanizmi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni amalga oshirishda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim menejmentida ilgari surilgan ilg'or innovatsion g'oyalarga tayangan holda ish ko'rish talab etiladi. Ushbu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, tegishli vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etishlari muhimdir.

Lekin afsuski bugungi kunda talabalarning har tomonlama ma'naviy yetuk avlod qilib tarbiyalashga to'siq bo'luvchi xavfli omillardan biri globallashuv va yning oqibatida yuzaga keladigan ma'naviy tahdidlardir. Globallashuv jarayonlarining salbiy va ijobiy tomonlari, globallashyvning o'quvchi-yoshlar ma'naviyatga ta'siri ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Xorijiy va mahalliy olimlarning asarlarida ma'naviyat, madaniyat va tarbiyaga nisbatan bo'layotgan salbiy tazyiqlarning oldini olish o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish zarurati muhim ekanligini vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomys, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlik, fidoylik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bynday sifat va fazilatlarini tarbiyalash ta'lim tizimida ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy tadbirlarni tashkil etishda barcha o'quvchi-yoshlarni Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralari bilan mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhbatlar, uchrashuvlar tashkil etish-bular hammasi talabalarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmuni, yo'nalishlari jahonda, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga mos ravishda doimo yangilab borish zarur. Ba'zi hollarda targ'ibot - tashviqot ishlarimiz ko'pincha tor doirada qolib ketayotganligi, hayotning keng qatlamlariga kirib borolmayotganligi, tajribasiz ayrim yoshlarning ongiga etib bormayotganligining naqadar xavfli ekanligiga maxsus to'xtalish mumkin. [5]

Xuloca o'rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatimizning tez sur'atlarda axborotlashuvi sharoitida yoshlar ma'naviy qiyofasi takomillashuvining ijtimoiy-ma'naviy masalalari shu darajada dolzarbki, bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq

bo'lgan masalalar nafaqat maktab, litsey, oliy o'quv yurtlari, balki oila, mahalla, yoshlar bilan ishlaydigan jamoat tashkilotlari o'rtasida o'rnatilgan mustahkam aloqalar asosida izchillik bilan amalga oshirilib, ularning dinyoqarashlarida vatanparvarlik tuyg'usini to'liq shakllantirganimizdagina biz ko'zlangan maqsadimizga erishamiz.

Talabalarni arxitektura yodgorliklari vositasida ma'naviy tarbiyalash tizimini rivojlantirish murakkab ko'rinishga ega bo'lib, mazkur jarayon o'zaro bir-biri bilan bog'langan tarkibiy qismlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, talabaniq turli ko'rinishdagi harakati va faoliyatida uning maxsus o'ziga xos baholash munosabati namoyon bo'ladi. Aynan talabaniq baholash munosabatlariga ko'ra yangi qadriyatlarni o'zlashtirishi amalga oshiriladi yoki bo'lmasa avvaldan mavjud bo'lgan qadriyatlar yanada ongda mustahkamlanadi.

Tizimli, subyektiv va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar va qadriyatga yo'naltirilgan faoliyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ahamiyatini to'liq anglab yetilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni madaniy meroslar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimi tuzilmasi sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarni madaniy meros vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash milliy pedagogikamizning dolzarb muammolaridan biri ekanligi ilmiy asoslandi.

Oliy ta'lim muassasalarida arxitektura yodgorliklarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatining o'ziga xos jihatlaridan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash, ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda foydalanish muammosi ilmiy-pedagogik xarakterga ega bo'lib, uni pedagogik jihatdan tadqiq etish, olingan ilmiy natijalarni ta'lim-tarbiya amaliyotiga tatbiq etish bu boradagi samaradorlik garovidir.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv dastur, darslik va sinfdan tashqari mashg'ulotlari tahlil qilinib talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ijtimoiy zarurat ekanligi asoslab berildi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // Xaliq so'zi. – Toshkent, 20 sentyabr, 2017 y.
2. Raximov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvshi, 1967.
3. Mavlanova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvshi, 2010.
4. Qurbanov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
5. Musurmonova O. O'quvshilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish – Toshkent: 1993. – 112
6. Primbetov K. Qoraqalpog'istondagi madaniy meroslar vositasida talaba - yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi. Doktorlik dissertatsiyasi bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. Chirchiq – 2023